

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

National and cultural features of brand names .....	589
<b>D.R.Ismoilova</b>	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Qotillik" mikromaydoni.....	596
<b>X.P.Shodmonov</b>	
Idiostil va stilistik konvergensiya munosabatining lingvopoetik tadqiqi.....	601
<b>X.Matnazarova</b>	
Diskurs tenorida adresant rollarning lingvistik tahlili .....	606
<b>J.Q.Ismonaliyev</b>	
Zamonaviy o'zbek tilshunosligida fe'l va zamonlarning o'rganilishi .....	609
<b>M.A.Abdulimova</b>	
Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi o'xshatishlarning mazmuniga ko'ra turlari .	612



UOK: 811.512.133'36-25

## DISKURS TENORIDA ADRESANT ROLLARINING LINGVISTIK TAHLILI

## LINGUISTIC ANALYSIS OF ADDRESSEE'S ROLES IN THE TENOR OF DISCOURSE

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РОЛИ АДРЕСТОРА В ТЕНОРЕ ДИСКУРСА

Matnazarova Xayriniso 

Urganch davlat universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti Roman-german filologiyasi kafedrası  
doktoranti  
0000-0003-3573-4074

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada diskurs tilshunosligida diskurs tenoridagi so'zlovchi ya'ni adresant rollarini lingvistik qarashlar orqali ifodalanishi tahlil qilingan. Bunda dialogik diskursda og'zaki tenor diskursining adresant rollari orqali ifodalanadi. U. Shekspirning "Qish ertagi" komediyasidagi qahramonlarning muloqotidagi diskurs tenorining lingvistik jihatlari o'rganilgan.

**Abstract**

This article analyzes how discursive Linguistics expresses through linguistic views the role of the speaker, that is, the addressee, in a discursive tenor. In this, the dialogic discourse is expressed through the roles of the addressees of the verbal tenor discourse. The linguistic aspects of the discursive tenor in the communication of the characters of Shakespeare's comedy "The Winter's Tale" are investigated.

**Аннотация**

В этой статье анализируется, как дискурсивная Лингвистика выражает через лингвистические взгляды роли говорящего, то есть адресанта, в дискурсивном теноре. В этом диалогический дискурс выражается через роли адресантов словесного тенорового дискурса. У. Исследованы лингвистические аспекты дискурсивного тенора в общении героев комедии Шекспира "Зимняя сказка".

**Kalit so'zlar:** Tenor, diskurs, tur, adresant, adresat, komik tragediya, dialogik diskurs.

**Key words:** Tenor, discourse, type, addresser, addressee, comic tragedy, dialogic discourse.

**Ключевые слова:** Тенор, дискурс, тип, адресант, адресат, комическая трагедия, диалогический дискурс.

**KIRISH**

Inson yashayotgan muhitda bir yoki bir nechta emas, o'ntalab adresat va adresant rollarni bajaradi. Diskurs tenori bo'lsa suhbat jarayonida qatnashuvchilar bajarayotgan rollaridagi matn ya'ni nutqda o'z aksini topadi. Muloqotda qo'llanilayotgan lingvistik birliklarning diskursiv jihatlari o'rganamiz. Biz ushbu ilmiy izlanishimizda dialogik muloqot jarayonida suhbatni tahlil qilamiz va adresant nutqidagi birliklarini, hamda adresant bilan adresat o'rtasidagi munosabatlarining qay darajada yaqinligini ko'rib chiqamiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Diskurs borasida ko'plab mashhur jahon tilshunoslari ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu lingvistikaning yangi yo'nalishi XX-asrning yarmidan so'ng ko'pchilikning ilmiy izlanishlariga sabab bo'lgan. Diskurs lotincha "discursus"- muhokama so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokamatalab bilimdan farqli o'laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil-isbotli bilim demakdir. Haqiqatning bevosita (intuitiv) va bilvosita (dalil isbot bilan qabul qilinadigan) haqiqatlarga bo'linishi haqidagi qarashlarni Aflotun (Platon) va Arastu (Aristotel) asarlarida uchratishimiz mumkin. Diskurs atamasini birinchi marta Foma Akvinskiy tadqiqotlarida uchraydi.[1]M.Halliday, D.Chiffirin, M.Grigrory, S.Karol[2] D.Haymes, T.A.Deyk va boshqalar diskursni ijtimoiy tilning kontekstdagi turli xil ifodasi deb o'rganishgan. Xususan, Maykl Grigrory va Syuzn Karrollning "Language and Situation" ya'ni "Til va Vaziyat" nomli kitobida diskurs, reestr va

## TILSHUNOSLIK

diskurs maydoni, tenori va usuli haqidagi alohida har bir bobi orqali kontekstdagi ma'noni vaziyatdan kelib chiqqan holatda tahlil qiladi. D.Haymes fikriga ko'ra diskurs faqat muloqotdir. Ammo, shu bilan birga u matn bilan o'zaro hamohang tarzda sodir bo'ladigan faoliyat deb aytib o'tgan.[3] Bu fikrga mos tarzda A.Pardayev ham quyidagicha ta'rif bergan: diskurs bu-so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashinuvi bo'lib, suhbatdoshlar bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni. Diskurs bu- jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo'lida voqelanishidir.[4] Ushbu ta'rifga kra diskurs suhbat jarayonida yuzaga keladigan mazmun bo'lib, u nutqiy faoliyatda aks etadi va so'zlovchining istak xohishi, va nutqiy faoliyatdan nazarda tutilgan ta'sirni o'zida aks ettiradi. Tenor ayni shu vaziyatda o'zining muloqot xususiyatini namoyon qiladi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiq qilinayotgan diskurs tenori bu- muloqot jaroyonidagi ishtirokchilarning bir- biri bilan rasmiy yoki norasmiy, yaqin yoki notanish, suhbatning muloyim yoki qo'pol tarzda ifodalanishidir. Shu o'rinda, suhbat ishtirokchilarining har bir adresant rollarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, diskurs tenorini yanada yaxshi anglab yetamiz. Birgina shaxsning o'zi suhbat jarayonida bir vaqtning o'zida ham muloyim ham qattiqqo'l hamda bo'ysunuvchi yoki bo'ysuntiruvchi bo'lishi mumkin. Misol uchun shifokor ayni paytda ma'lum bir kasalxonaning rahbari bo'lishi mumkin, ammo uning umri davomida bajaradigan adresant rollari faqat shu bilan chegaralanib qolmaydi. Ayol jinsiga mansub shaxsni adresant rollarini sanab o'tadigan bo'lsak, shifoxonada bemorlar uchun shifokor, o'qituvchisi uchun shogird, o'quvchilari uchun ustoz, uyda farzandlar uchun ona, turmush o'rtog'i uchun -xotin, qaynona uchun kelin, ota-onasi uchun – qiz, opasi yoki akasi uchun- singil, singil yoki ukasi uchun-opa, tog'a-amaki va amma-xola uchun- jiyan, va yana tog'avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachcha bo'ladi. Bu har bir adresant rolining vazifasi va maqsadi bir-biridan farq qiladi. Bunda insonning har bir suhbat jarayonidagi diskurs maydoni, tenori va usuli o'zgarib turadi. Misol uchun, tenorning bir nechta ustun jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Tenor asosan yuzma-yuz suhbatda yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuzma-yuz suhbatda tenor odatda so'zlashuv uslubida kuzatiladi. Tenor ustunlik qiladigan jihatlar quyidagi muloqot turlarida kuzatiladi: yuzma-yuz suhbat; haqoratli so'z ishlatish va maqtanish; g'iybat; salomlashish; reklama tili; savdo-sotiqdagi kelishuv tili; iltijo qilish; harbiy buyruq berish; marosimlar diskursi; pedogogik nutq; guruhlarga tegishli jargonlar; xat yozish usuli; sahna tili; ishq muhabbat nutqi; belgilar va e'lonlar tili.[5]

Diskur maydoni, tenori va usulining murakkabligi sabab ularning suhbat jarayonidagi ustunligini aniqlash ma'lum ma'noda ko'pchilik tadqiqotlarda asossiz deb topilgan. Hazil va pand-nasihatlar tenor bilan bir qatorda uslub ham birdek muhim hisoblanadi. Iltijo qilish va harbiy buyruq berishda uslub asosiy o'rin egallaydi. Chunki bu ikkisida suhbatning og'zaki yoki yozma bo'lishiga qarab keyin tenor va maydon aniqlanadi. Savdo-sotiqdagi kelishuv tilida esa maydon yetakchi vazifani bajaradi. Demak muloqot mavzusi hal qiluvchi vazifani bajaradi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Diskurs tenorining yozma nutdagi ifodasi badiiy asarlardagi personajlar nutqida ko'rinadi. Yozuvchi qahramon nutqini yaratarkan u qo'llaydigan so'z, ibora va jumlar diskurs vaziyatiga va mavzusiga mos tartibda va ohangda shakllantiriladi. Ushbu tadqiqot ishida biz U.Shekspirning "Qish ertagi" komediyasi qahramonlarining diskurs tenori tahlilidan ayrim na'munalarni taqdim qilishni maqsad qilganmiz. Bunda Sitsiliya qiroli Leontning adresant rollarini ko'rsatib beruvchi dialoglarda diskurs tenori yetakchi vazifani bajarayotganligini kuzatamiz. "Qish ertagi" komediyasida Leont va Kamillo o'rtasidagi yuzma-yuz suhbatda tenor ustunligini kuzatishimiz mumkin. Bunda Leont Mamilliy ketganidan keyin Leont Poliksenni oliy mehmon deb atab, uning qolishga qarorini maquullaydi. Kamillo esa unga hushomad qiladi va Poliksenni ko'p talashganligini alohida ta'kidlaydi. Leont Kamilloni buni payqaganiga ishonch hosil qilish uchun shu mazmundagi savol bilan unga murojaat qiladi va ular Poliksenni ayni shu vaziyatdagi holatini tahlil qiladi. Suhbatning har bir jumlasiga alohida urg'u berib muhokama qiladi, va Poliksenni qolish sababini aniqlashga harakat qiladi. Kamillo Germiyonani "marhamatli malikam" deb to'g'ri ma'noda atasa, Leont kinoyali ma'noda qabul qilib quyidagi mazmunda fikrni bayon qiladi:

*Kamillo*

*Marhamatli malikamni ranjitmay dedi*

*Leont*

*Nega endi "marhamatli?" Malika, xolos.*

*"Marhamatli" degan nomni qozonmoq darkor.*

*Xa, darvoqe, bormi yena sohibi iqdok,*

*Payqaganlaringni jilla payqay olgan zot.[6]*

Misoldan ko'rinib turibdiki, Leont va Kamillo ayni bir vaziyatni ikki xil qabul qilgan Leont nutqidagi tenor shubha, gumon, g'iybat va ishonchsizlikni ifodalasa, Kamillo nutqidagi tenor Germiyona va Poliksenni beaybligi, Poliksenni erining do'sti sifatida mehmondorchilikka qolishi uchun ko'ndirishga qilgan harakatini to'g'ri ma'noda qabul qilganligini ko'rsatadi. Lekin ayni shu jumlaning Leont ayolining eriga nisbatan xiyonotkorona mulozamati deb tushuniladi. Demak, diskurs tenori nutqi vaziyatdagi muayyan bir so'z, ibora yoki jumlaning suhbatdosh tomonidan turlicha qabul qilinib, turlicha talqin qilinishi sifatida tushuniladi. Diskurs tenori suhbatning hukmron va tobe va teng munosabatlarini ifodalaydi. Shu o'rinda Leont nutqidagi diskurs tenori hukmron, Kamillo nutqidagi tenor tobe. Ayni damda muloqot maqsadiga erishish uchun, Leont suhbat jarayonida o'zining hukmron statusidan biroz past tushib, Kamillo bilan teng munosabat o'rnatishga harakat qilganligini, uning nutqini Kamillo nutqiga nisbatan ko'proq cho'zilganligida ko'rish mumkin. Demak, ko'pchilik holatlarda hukmron tenor nutqi tobe tenorga nisbatan ko'proq davom etadi. Bu munozarali nazariya chunki nutq vaziyatida odatda savol hukmron tenor tomonidan beriladi, tobe tenor, unga javob beradi.

Demak, diskursda tenor hukmronligi so'zlovchilarning ijtimoiy mavqeyi bilan har doim ham belgilanmaydi, bunda muloqot mavzusi va muhokamaga berilayotgan masalaning kim tomonidan to'g'ri yechim taklif qilinishiga ham bog'liq bo'ladi. Buni asarning 33-betida Kamilloni Poliksen bilan bo'lgan suhbatida ko'rishimiz mumkin. Bu vaziyatda Kamillo nutqi hukmron, shoh Poliksen nutqida tobe tenori kuzatishimiz mumkin.

*Kamillo*

*Mayli, mendan so'ratingiz or-nomus haqi,*

*Or-nomus sohibiga beraman javob,*

*Shoxim, mening aytganlarim bajo aylangiz-*

*Darhol, yo'qsa ikkimiz ham bo'lamiz xarob.*

*Poliksen*

*Xo'sh, Kamillo, ayta qol.[7]*

## XULOSA

Diskurs tenorining adresant rollari tadqiqi muloqotdagi lingvistik birliklarning vazifasini va maqsadini birma-bir tahlil qilish imkonini beradi. Muloqot jarayonidagi diskurs markerlar mayli, darhol va shu kabilar nutqni mayinligi uning yanada tushunarli bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Shunday qilib, ushbu ilmiy tadqiqotimizda, diskurs tenorining adresat rollari o'rganildi. Diskurs tenorining hukmron va tobe turlari o'rganilib, U.Shekspirning "Qish ertagi" komedik-tragediyasi qahramonlari nutqidagi dialog davomida hukmron tenor hamisha insonning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra belgilanmasligini aniqlandi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva M. Falsafa qisqacha izohli lug'at. –Toshkent-2004.–b.126
2. M.Gregory, S.Carroll Language and Situation–1<sup>st</sup> edition–London Routledge–1978 –p.3
3. J.Gumperz.Discourse Strategies.–Cambridge University press.–p.2
4. A.Pardayev. Diskurs haqida ayrim mulohazalar.–p.1
5. J.G.Verlag "Journal of literary semantics"–Heidelberg–VOL.IX/2(1980)
6. W.Shakespeare.Winter's tale.Global grey 2019.–Pp.5-6
7. U.Shekspir.Tanlangan asarlar.Toshkent.G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti.1985–P.10